



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100174, Toshkent sh., Olmazort tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 71-203-32-23, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz



2023-yil 23-may

03/42-808-son

**Oliy ta’lim muassasalari rektorlari
hamda filiallar direktorlariga**

YUNESKO tashkiloti “Ipak yo‘li dasturi doirasida “Ipak yo‘li yoshlar tadqiqot granti- Ipak yo‘li tashabbusi orqali yosh tadqiqotchilar salohiyati va hissasini kuchaytirish” deb nomlangan 3-xalqaro tanlovini e‘lon qildi. Mazkur tanlov Xitoy Xalq Respublikasining YUNESKO ishlari bo‘yicha Milliy komissiyasi tomonidan moliyalashtiriladi.

Mazkur tanlovning asosiy maqsadi yosh tashkilotchilarni “Ipak yo‘lining umumiy merosini o‘rganishi uchun safarbar etishga qaratilgan bo‘lib, 35 va undan kichik yoshdagi ayollar va erkaklarga 12 ta granti ajratiladi.

Nomzodlar Ipak yo‘li bo‘ylab asrlar davomida o‘zaro hamkorlikda rivojlangan umumiy meros va o‘ziga xoslik bilan bog‘liq ta’lim yo‘nalishlariga ariza topshirishlari mumkin. Shuningdek, ularning tadqiqotlari dolzarbligi va bu merosning o‘ziga xos bo‘lgan ijodkorlik, muloqot, ijtimoiy hamjihatlik, xalqaro va mintaqaviy hamkorlik, barqaror tinchlik va rivojlanish uchun YUNESKO mandatiga muvofiq bo‘lishi lozim.

Tanlovda qatnashish uchun nomzodlar 2023-yilning 31-may kuniga qadar (<https://en.unesco.org/silkroad/youthgrant>) veb-sahifasi orqali shaklni onlayn to‘ldirishlari so‘raladi. Tanlov haqida qo‘shimcha ma‘lumot olish uchun UNESKOning “Ipak yo‘llari” dasturi bo‘yicha mutaxassislari Mehrdad Shabahang (m.shabahang@unesco.org) va Tara Golkar xonim (t.golkar@unesco.org) bilan bog‘lanishingiz mumkin.

Vazir o‘rinbosari



S. Buzrukxonov